



“ XADICHA SULAYMONOVA VA XOTIN-QIZLAR
HUQUQLARI: KECHA VA BUGUN”

Avazbekova Ruxshona

ruxshonaavazbekova18@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xotin-qizlar huquqlari va jamiyatda ayollar huquqlarining himoya qilinishi shuningdek davlat boshqaruvida ayollarning ishtiroki tahlil qilinadi. XX asr huquqiy islohotlar hayotida Xadicha Sulaymonovaning xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish yo'lidagi faoliyati o'rganiladi va bugungi kunda ushbu islohotlarning ahamiyatli jihatlari ushbu maqoladan o'rin olgan.

Kalit so'zlar: *Xadicha Sulaymonova, xotin-qizlar huquqlari, gender tengligi, jamiyat, davlat, O'zbekiston.*

Annotation: This article analyzes women's rights and the protection of women's rights in society, as well as the participation of women in state administration. Khadicha Sulaimanova's work in the protection of women's rights in the life of legal reforms of the 20th century is studied, and the important aspects of these reforms today are presented in this article.

Key words: Khadicha Sulaimanova, women's rights, gender equality, society, state, Uzbekistan.

Аннотация: В данной статье анализируются права женщин и защита прав женщин в обществе, а также изучается деятельность Хадичи Сулаймановой в сфере защиты прав женщин в жизни правовых реформ 20 века, а также представлены важные аспекты этих реформ сегодня.



Ключевые слова: Хадича Сулайманова, права женщин, гендерное равенство, общество, государство, Узбекистан.

Gender tengligi, xotin-qizlar huquqlari hamma vaqt eng muhokamalarga boy mavzu bo'lib kelgan, o'tkan asrdan tortib hozirgi 2025-yilga kelib ham bu mavzu o'z dolzarbligini yo'qotmagan. O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi bo'yicha 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egallagan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100000 ayoldan 29 tasi gender tengsizlik tufayli vafot etishi qayd etilgan. Ushbu statistik ma'lumot huquqiy davlat hisoblangan O'zbekiston Respublikasi uchun yuqori hisoblanadi va mamlakatda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash qanchalik dolzarb muammo ekanligini ochib beradi.

O'zbekistonda ayollar huquqlari himoyasida muhim rol o'ynagan shaxslar sanoqlidir. Ulardan biri O'zbekiston huquqshunoslik sohasiga katta hissa qo'shgan ilk huquqshunos o'zbek olimasi, professor Xadicha Sulaymonovna Sulaymonova hisoblanadi. Uning yoshlik davri Turkiston o'lkasida oktabr inqilobining ro'y berishi, "Hujum" harakati natijasida ko'plab xotin-qizlarning o'z oila a'zolari tomonidan o'ldirilgan paytlarga to'g'ri kelgan. Shunday vaxshiylik qurbonlaridan birining qotili ustidan olib borilgan sud ishida qoralovchi sifatida Tojixon Shodiyeva qatnashadi. Ayni shu voqealarni ko'rgan yosh Xadicha kelajakda huquqshunoslik kasbini egallashni maqsad qilib qo'yadi. O'sha davrda ayollar huquqlari, gender tengligi kabi tushunchalarning yo'qligi kelajakda Xadicha Sulaymonovanning gender tengligi bo'yicha islohotlarni amalga oshirishiga turtki bo'lgan bo'lsa ajab emas. Xadicha Sulaymonova huquq sohasiga kirib kelisha bilan o'z oldiga huquqiy davlat qurish maqsadini qo'yadi. 1956-yilda O'zbekiston



SSRning Adliya vaziri lavozimiga tayinlangandan so'ng, uning huquqiy islohotlar davri boshlanadi. Uning islohotlarini to'rt yo'nalishga bo'lish mumkin. Ushbu islohot yo'nalishlaridan biri bevosita jamiyatda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va gender tengligiga erishish edi.

O'tkan XX asrda mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlari, gender tengligi kabi tushunchalar deyarli bo'lmagan desak adashmaymiz. "Hujum" harakatlaridan so'ng esa bu yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. O'zbekiston ayollari hayoti bilan tanishib, "O'zbekistonning yangi ayoli" nomli kitob yozgan amerikalik olim Marianna Kemp 1920-1930-yillarda Sovet hukumatining o'zbek ayollarini paranjidan chiqarish siyosatini tanqid ostiga oladi. "Paranjidan chiqarish siyosati, ya'ni hujumni amalga oshirgan o'zbeklarning ko'pi bu yo'l bilan ayollarni ozod qilamiz", - deb ishongan. Shu bois Sovet hukumati ayollar paraji tashlasin deganda ular umryo'ldoshlarini shunday qilishga majbur qilganlar. Bunga qarshi oila a'zolar esa paraji tashlagan ayollarni o'ldirishga tushgan. Ular nazarida bu gunoh bo'lgan. Ko'plab xotin-qizlar hayoti ko'kka sovurilgan",- deydi Marianna Kemp. Dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan inson huquqlari ya'ni shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar muayyan mamlakat fuqarosining ajralmas huquqlari hisoblanadi. Biroq aynan XX asrning boshlarida mamlakatimizda xotin-qizlarning har bir insonning tabiiy huquqi hisoblangan yashash huquqi ham himoya ostiga olinmaganligini ko'rishimiz mumkin. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib siyosiy hayot jonlana boshladi va ayollarni davlat ishlarida ko'rish mumkin bo'ldi. Ushbu ayollardan biri Xadicha Sulaymonova edi. Ushbu davrda Xadicha Sulaymonova Oliy sud raisasi lavozimida faoliyat olib borar edi. Davlat ishida ishlash, islohotlar amalga oshirish bilan bir vaqtda u ko'plab xotin-qizlarning ta'lim olishini rag'batlantirib, ularning ilmiy faoliyatida ilmiy rahbar sifatida ko'mak beradi. Ular



orasida sobiq Adliya vazirlaridan biri Vosiqova Mamlakat Sobirovna uning birinchi aspiranti bo'ladi.

Hozirgi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi hukumati ayollar va qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash borasidan ulkan sa'y-harakatlarni amalga oshirgan. Ushbu harakatlar orqali sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa ham mamlakatning chekka qishloqlari va ba'zi shaharlarda ham xotin-qizlar uchun teng imkoniyatlar yaratish ko'p mehnatni talab qilmoqda. Yuqorida keltirgan statistik ma'lumotni yoda olsak unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi gender tengligi ko'rsatkichlari bo'yicha 2019-yildan boshlab qatnasha boshlagan. Ayni shu 2019-yilda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonun doirasida xotin-qizlarning ta'lim sohasidagi huquqlari, mehnat bozorida ishtirok etish imkoniyatlari, siyosiy va iqtisodiy sohalardagi o'rni mustahkamlanmoqda. Shuningdek 2022-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Mehnat kodeksida mehnat munosabatlarida gender tengligini ta'minlash bo'yicha qator normalar kiritildi. Chunki ayollarning ishga joylashishidan to muayyan mansabga ko'tarilishigacha bo'lgan jarayon erkaklarga nisbatan qiyinroq kechar edi. Hozirgi kiritilgan o'zgartirishlar ushbu tengsizlik foizini kamaytirmoqda. Ta'lim sohasida esa qizlarning oliy ta'limga kirish imkoniyatlarini oshirish maqsadida har yili 2000 grant ajratilmoqda, shuningdek davlat oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichida ta'lim olayotgan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt mablag'larining Davlat budjetidan qoplab berilishi tasdiqlangan. Siyosiy huquqlardan biri hisoblangan davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishda ayollar faolligi kuchaytirildi, xususan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ayollar umumiy deputatlar sonining 40 foizini tashkil etishi shart sifatida belgilab qo'yilgan. Biroq gender zo'ravonligiga qarshi



kurash haligacha dolzarb va munozarali mavzu bo'lib qolmoqda. Gender zo'ravonlik jismoniy, ruhiy, jinsiy, huquqiy zo'ravonlik turlariga bo'linishi mumkin.

Gender zo'ravonlikka qarshi kurash xalqaro, davlat, jamiyat miqyosida olib borilishi kerak. O'zbekistonda davlat huquqiy jihatdan gender tengsizlik va zo'ravonliklarga nisbatan jazo choralari belgilab qo'ygan. Biroq bizning mamlakatimizda jamoatchilik fikri va nazorati ham katta kuch hisoblanadi. Shu sababli an'anaviy stereotiplarga qarshi kurashishda jamoatchilik faollarining faoliyatini kuchaytirish lozim. Ayollarni faqatgina uy bekasi sifatida emas, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida gavdalantirish kerak. Eng asosiysi muammo bor joyda jim qolmaslik shart.

Yuqorida keltirib o'tilgan xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash sohasida amalga oshirilgan barcha islohotlarning boshlovchisi bu Xadicha Sulaymonova hisoblanadi. Uning faoliyati natijasida o'zbek ayollarining jamiyatda mavqei yaxshilandi, ta'lim va ilmiy faoliyatda ishtiroki ortdi. Bugungi kunda ushbu yo'nalishda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda, ammo hali ham gender tengligini to'liq ta'minlash qo'shimcha harakatlarni talab qiladi.

Xotin-qizlar huquqlari borasidagi kechagi kurash va bugungi taraqqiyot Xadicha Sulaymonova kabi fidoyi insonlarning sa'y-harakatlari natijasidir. Shunday ekan, uning ilmiy merosi va ijtimoiy faoliyatini targ'ib qilish va davom ettirish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Xakimov, G'.Axmedov, A.Saidov Xadicha Sulaymonova - huquqshunos, olim, davlat arbobi . - T.: O'ZBEKISTON 1993. - 151 b.



2. M.X, Hakimov Akademik Xadicha, - T.: “O’ZBEKISTON”, 1993. - 150 b.
3. Marianne Kamp The New Woman in Uzbekistan, - “University of Washington Press”, 2008.
4. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni // <http://lex.uz//uz/docs/-4494849>
5. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // <http://lex.uz//uz/docs/-6257288>